

**MEHNAT MIGRATSIYASI VA XOTIN-QIZLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING
O'ZIGA XOSLIGI****Doniyarova S.Sh. -**
O'zJKU magistranti

“Migratsiya” atamasi lotincha “migratio” va “migro” soʻzlaridan kelib chiqqan boʻlib, “koʻchib oʻtyapman” va “koʻchib ketyapman” degan maʼnolarni anglatadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) migratsiyani “odamlarning odatiy yashash joyidan xalqaro chegara orqali yoki davlat chegaralari ichida koʻchib oʻtishi”, deb taʼriflaydi[1; URL] Tegishli davlatda aholi populyatsiyasi, ijtimoiy-demografik tarkibi, jinsiy-yosh tuzilmasidagi oʻzgarishlar, avlodlar davomiyligini taʼminlash muammolari migratsion jarayonlar bilan chambarchas bogʻliq. Shu bois, XXI asrda migratsiya global ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik hamda demografik muvozanatni izdan chiqarishga qodir yirik sotsial omilga aylandi.

Sharq va Gʻarb mamlakatlarining mehnat migratsiyasiga doir qarashlari yoritilib, mehnat migratsiyasi jarayonlarining institutsional rivojlanish bosqichlari nazariy tahlil qilingan. Sharq mutafakkirlarining asarlarini oʻrganish va tahlil qilish insoniyat tarixida yuz bergan koʻplab koʻchishlar haqida dastlabki maʼlumotlar olish imkonini beradi. Bu koʻchishlarning sababi sifatida koʻplab jang-u jadallar, urushlar va turli tabiiy ofatlar tufayli xalqlar yashayotgan hududlarga koʻchib boshqa hududlarni oʻzlashtirganlar. Bu kabi koʻchishlar kimlarnidir turli qiyinchiliklarga solgan boʻlsa, kimlarnidir turmush sharoitini ijobiy oʻzgartirib, farovon hayot tarziga oʻtishlariga sabab boʻlgan. Turkiy xalqlarining maʼnaviy boyligi boʻlmish Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asari ham katta eʼtiborga loyiq. Jumladan, Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asarida turli davlatlarning hukmdorlari, avlodlar tajribasidan, jumladan, oʻz shaxsiy tajribasidan kelib chiqib, muhim siyosiy muammolardan biri boʻlgan raiyat, yaʼni fuqarolarning davlat hududlariga joylashtirilishi hamda ularning koʻchishini doim nazorat qilish zaruratini ilgari surgan[2; 4-5].

Zamonaviy migratsiya jarayonlarida xotin-qizlar ulushining ortib borishi migratsiyaning “feminizatsiyasi” fenomenini shakllantirdi. Bu tushuncha ilk bor XX asr oxirlarida xalqaro migratsiya oqimlarida ayollar sonining sezilarli darajada oshishi bilan bogʻliq holda ilmiy myomalaga kiritilgan[3; 4]. Statistik maʼlumotlar ham ayollar bugungi kunda xalqaro migrantlarning qariyb yarmiga yaqin qismini tashkil etishini koʻrsatadi. Gender yondashuv nuqtai nazaridan, xotin-qizlar mehnat migratsiyasi anʼanaviy jinsiy mehnat taqsimoti, patriarxal ijtimoiy munosabatlar va madaniy stereotiplar bilan chambarchas bogʻliqdir. S. Sassen taʼkidlashicha, global iqtisodiyotning transformatsiyasi xizmat koʻrsatish va parvarish sektoriga talabni oshirib, aynan ayollar mehnatini xalqaro miqyosda talabgir resursga aylantirdi. Natijada “global care chain” (global gʻamxoʻrlik zanjiri) shakllanib, rivojlanayotgan mamlakatlardan kelgan ayollar rivojlangan davlatlarda uy xizmati va parvarish sohasida band boʻla boshladi[4; 2003].

Bizningcha, Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asari davlat boshqaruvi, adolat, tartib-intizom va raiyat bilan munosabat masalalarini chuqur tahlil etadi. Asarda raiyatni davlat hududlariga joylashtirish va ularning koʻchishini nazorat qilish zarurati haqida ilgari surilgan fikrlarni bugungi migratsiya masalasi bilan bogʻlab koʻrish juda dolzarbdir. Oʻrta asrlarda aholi harakati, yaʼni koʻchish jarayoni davlat xavfsizligi, soliqlar yigʻimi va iqtisodiy barqarorlik bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan. Agar raiyat tartibsiz ravishda bir hududdan boshqasiga koʻchib yursa, yer-suv taqsimoti izdan chiqadi, soliq tizimi zaiflashadi va ijtimoiy nazorat susayadi. Shu sababli Nizomulmulk aholi joylashuvi va harakatini davlat eʼtiborida tutish zarurligini taʼkidlaydi. Bu aslida oʻsha davr uchun migratsiyani boshqarish siyosati edi. Nizomulmulkning qarashlari shuni koʻrsatadiki, migratsiya jarayonlarini butunlay taqiqlash emas, balki ularni oqilona nazorat qilish, tartibga solish va davlat manfaatlari bilan uygʻunlashtirish muhimdir. Shu bilan birga, “Siyosatnoma”da hukmdorning raiyatga adolatli boʻlishi, ularning dardini tinglashi kerakligi taʼkidlanadi. Bu esa migratsiyaning sabablarini ham tushunishga undaydi. Agar mamlakat ichida adolat va iqtisodiy barqarorlik taʼminlansa, aholi majburiy koʻchishga kamroq ehtiyoj sezadi. Demak, migratsiyani boshqarish faqat nazorat bilan emas, balki ijtimoiy adolat va farovonlikni taʼminlash bilan ham bogʻliqdir. Xulosa qilib aytganda, “Siyosatnoma”dagi raiyatni joylashtirish va

ularning ko'chishini nazorat qilish haqidagi g'oyalar bugungi migratsiya siyosatining tarixiy ildizlarini ko'rsatadi. Nizomulmulk davlat barqarorligini saqlash uchun aholi harakatini tartibga solish zarurligini ilgari surgan bo'lsa, zamonaviy talqinda bu jarayon inson huquqlari, iqtisodiy manfaat va xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni anglatadi.

Xuddi shunday nazariy xulosalarni Amir Temurning "Temur tuzuklari", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat" va "Mahjub ul-qulub" asarlarida hamda Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida ham ko'rish mumkin.

Sotsiologiya integrativ fan sifatida mehnat migratsiyasi va uning gender xususiyatlarini ijtimoiy hodisa va jarayon sifatida o'rganishni taklif etdi. Migratsiyaning alohida jihatlarini struktural-funksionalizm maktabi vakillari E. Durkgeym, T. Parsons va R. Mertonlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, T. Parsons jamiyatning tizimli-funksional xususiyatlaridan kelib chiqib, migratsiyaga turtki beruvchi ijtimoiy omillarni o'rganishda integrativ yondashuv qo'llagan. Uning fikricha, jamiyat hayoti ijtimoiy, shaxsiy va madaniy tizimlar kesishmasida kechadi; shu bois aholi migratsiyasi ushbu uch o'lchamli ijtimoiy makonda uzoq muddatli ijtimoiy transformatsiyalarni shakllantiradi[7; 21]. E. Durkgeym esa bunday ijtimoiy transformatsiyalar bir tomondan jamiyatda ijtimoiy ahamiyatli funksiyalarni bajaradi, ikkinchi tomondan ijtimoiy muvozanatni izdan chiqaruvchi disfunktsional holatlarni shakllantirishi mumkin, deb hisoblaydi[8; 58]. R. Merton fikricha, shunday disfunktsional vaziyatlar migratsiyaning ochiq yoki latent, ya'ni yashirin ijtimoiy funksiyalari sababli ham shakllanishi mumkin[9; 76]. Migratsiya, shu jumladan mehnat migratsiyasi, jamiyatda ijtimoiy transformatsion jarayonlarni yuzaga keltiradi. Bunda mehnat migranti bo'lib kelgan insonlar shu mamlakatdagi ijtimoiy normalarni qabul qilib, keyinchalik tub xalqqa qo'shiladi yoki o'zlari bilan olib kelgan ijtimoiy normalarni ushbu mamlakatda joriy qilish natijasida tub xalq o'zining mental xususiyatlaridan mahrum bo'ladi. Har qanday ko'rinishda ham migratsion jarayonlar yuz bergan hududda ijtimoiy o'zgarishlar yuz beradi.

Sotsiolog M.Blinova ta'kidlaganidek, "U.Tomas va F.Znaneskiylarning sifatli tadqiqot metodlari asosida migratsiyaning ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilgan ilk sotsiologlardan bo'ldi" [5; 173]. O'z davrida ushbu asar yordamida yangi ko'chib kelgan hududda turli sotsial xarakterga ega kishilar jumladan xotin-qizlar orasida jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish va ijtimoiy tizimga moslashib ketishidagi ichki mexanizmlarni modellashtirish xususiyatlariga ko'plab ilmiy izohlar berilgan. Blinovaning ilmiy xulosalariga ko'ra, xotin-qizlar migratsiyasi jamiyat hayotiga keng ta'sir ko'rsatadi. Xususan: oilaviy munosabatlar va gender rollari o'zgaradi, transmilliy oilalar shakllanadi, farzandlar tarbiyasida masofaviy nazorat modeli yuzaga keladi, ayollarning iqtisodiy mustaqilligi ortadi. Biroq bu jarayon ijtimoiy izolyatsiya, diskriminatsiya va psixologik zo'riqish kabi muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Nazarimizda M.Blinovaning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlar migratsiyasi murakkab ijtimoiy jarayon bo'lib, u nafaqat iqtisodiy omillar, balki gender tengsizlik, madaniy moslashuv va shaxsiy identitet bilan chambarchas bog'liqdir. Ayol migrant yangi jamiyatda o'z maqomini qayta shakllantiradi, ijtimoiy tizimga moslashadi va ko'pincha iqtisodiy mustaqillikka erishadi. Shu bilan birga, migratsiya siyosatini ishlab chiqishda ayollarning o'ziga xos ehtiyojlari va ijtimoiy himoya mexanizmlarini inobatga olish zarurligi Blinova tadqiqotlarining eng muhim ilmiy xulosalaridan biridir. Demak, xotin-qizlar migratsiyasini chuqur o'rganish zamonaviy sotsiologiya oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Sotsiolog M.Gafforova migratsion xaritaning ishlab chiqish orqali ayollarning migratsiya jarayonidagi ishtiroki, sotsial mobilligi, ijtimoiy faolligi, migratsiya muhiti, hududiy xususiyatlari, turmush tarzidagi stereotiplar, sotsial munosabatlar, qadriyatlar transformatsiyasini ochib bergan va "Migrant ayollarning namunaviy migratsion sotsial mobillik xaritasi"ni ishlab chiqqan[6; 14]. M. Gafforova migrant ayollarning migratsiya jarayonidagi faolligi va ishtirokini o'rganishda asosiy e'tiborni ularning migratsiya muhiti va hududiy xususiyatlariga qaratgan. Ayollar, o'zaro ijtimoiy munosabatlar, turmush tarzidagi stereotiplar va qadriyatlar transformatsiyasi orqali migratsion jarayonda qanday o'zgarishlarni boshdan kechirayotganini ko'rsatishga harakat qilgan.

Fikrimizcha, M. Gafforova tomonidan ishlab chiqilgan “Migrant ayollarning namunaviy migratsion sotsial mobillik xaritasi” migratsiya jarayonini gender yondashuv asosida tahlil qilishda muhim nazariy-metodologik ahamiyatga ega. Mazkur xarita migrant ayollarning migratsiyadagi ishtirokini faqat iqtisodiy omil bilan cheklab qo‘ymasdan, balki uni ko‘p o‘lchovli – sotsial, madaniy, hududiy va qadriyatlar transformatsiyasi kontekstida o‘rganishga imkon beradi. Umuman olganda, M. Gafforovanning migratsion sotsial mobillik xaritasi migrant ayollarning migratsiya jarayonidagi o‘rnini kompleks tahlil qilish imkonini beruvchi konseptual model sifatida baholanishi mumkin. Ushbu yondashuv zamonaviy migratsiya sotsiologiyasida gender omilini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi hamda amaliy siyosat ishlab chiqishda ham nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mehnat migratsiyasi jarayonlariga doir nazariyalarning shakllanishi Sharq va G‘arb olimlari qarashlari asosida uzoq tarixiy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Mehnat migratsiyasi bu iqtisodiy manfaat, bandlik va daromad manbalarini kengaytirish maqsadida aholining vaqtinchalik yoki doimiy ravishda boshqa hududga ko‘chib o‘tishi bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir. U nafaqat mehnat bozori muvozanatini ta‘minlash, balki ijtimoiy mobillik, daromadlar qayta taqsimoti va hududlararo rivojlanish jarayonlariga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, xotin-qizlar migratsiyasi umumiy mehnat migratsiyasidan o‘zining gender xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ayollar migratsiyasi ko‘pincha iqtisodiy omillar bilan bir qatorda oilaviy mas‘uliyat, ijtimoiy stereotiplar, madaniy me‘yorlar va gender rollari bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Migratsiya jarayonida ayollar bir vaqtning o‘zida iqtisodiy subekt, oilaviy barqarorlikni ta‘minlovchi shaxs hamda ijtimoiy qadriyatlar transformatsiyasining faol ishtirokchisi sifatida maydonga chiqadi.

ADABIYOTLAR:

1. Statistics on international labour migration. URL <https://ilostat.ilo.org/topics/labour-migration>.
2. Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar ul-muluk). Ikkinchi to‘ldirilgan, qayta ishlangan nashri. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2017. – B. 4–5.
3. Castles, S., & Miller, M. J. (2009). *The age of migration: International population movements in the modern world* (4th ed.). Palgrave Macmillan.
4. Sassen, S. (2003). *Globalization and its discontents: Essays on the new mobility of people and money*. The New Press.
5. Блинова М.С. Миграция населения: подход социологов Чикагской школы. // Вестник Московского университета. Серия 18. Социология и политология. 2011. №4. – Б.173.
6. Gafforova M.Q. «O‘zbekiston xotin-qizlarining sotsiomadaniy qiyofasidagi o‘zgarishlar tendensiyasi» sotsiologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent. 2021. – B.14.

REZYUME:

Maqolada muallif mehnat migratsiyasi jarayonlariga doir nazariyalarning shakllanish va evolyutsiyasiga doir manbalari nazariy tahlil qilinib, unda xotin qizlar mehnat migratsiyasi jarayonlariga doir qarashlar, ta‘limotlar va nazariyalar hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar atroflicha yoritiladi.

Kalit so‘zlar: migratsiya, xotin-qizlar migratsiyasi, gender omili, ijtimoiy himoya, sotsial mobillik.

РЕЗИОМЕ:

В статье представлен теоретический анализ источников формирования и эволюции теорий трудовой миграции, а также освещены современные научные исследования и теории процессов женской трудовой миграции.

Ключевые слова: миграция, женская миграция, гендерный фактор, социальная защита, социальная мобильность.

RESUME:

This article presents a theoretical analysis of the sources of the formation and evolution of labor migration theories, comprehensively covering the views, doctrines, and theories of female labor migration processes, as well as contemporary scientific research.

Keywords: Migration, women’s migration, gender factor, social protection, social mobility.